
O'ZINGIZGA QULAY BO'LGAN HUDUDDAN "ONLINE-VIDEO" TIZIMIDA BYURO RAHBARI BILAN MULOQOT QILISHINGIZ MUMKIN!



Fuqarolarimiz murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash Majburiy ijro byurosi organlari oldidagi muhim vazifalardan biridir !

Aholi murojaatlarini qabul qilishda yanada qulaylik va shaffoflik yaratish, muammolarini tezkorlikda hal etish maqsadida, murojaatlar "Online-video" tizimi orqali ham qabul qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

Endilikda, fuqarolarimiz har haftaning shanba kuni soat 10-30 dan boshlab, o'zlariga yaqin bo'lgan yoki istagan hududdagi Byuroning hududiy boshqarma yoki bo'limlariga borib, u yerda tashkil etilgan "Online-video" tizimi orqali, Byuro rahbariyati bilan muloqot qilib, faoliyatga doir har qanday masala bo'yicha murojaat qilishlari mumkin bo'ladi.

"Online-video" tizimi orqali murojaat yo'llashga to'sqinlik qilish holatlari haqida zudlik bilan (71) 207-11-59, 207-11-74 raqamli ishonch telefoniga xabar qoldirishingiz mumkin!

Qabul qilingan murojaatlar bo'yicha qonuniy qaror qabul qilinishi ta'minlanadi.

"Online-video" murojaatlarda ishtirook etgan fuqarolarimiz bu tizim har tomonlama qulaylik yaratmoqda.

Fuqarolarimiz bilan navbatdagi "Online-video" murojaat jarayonlari joriy yilning 15 oktyabr kuniga belgilangan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-10-15 11:22:17